# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4I11Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 11 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров ҚулматАширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 11-son (Noyabr, 2024). -569 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич*
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА ........ 12-17

*Эгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли*
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) ........ 18-25

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
QO’QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI ........ 26-31

*Mamatqulov Bekzod*
O‘ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI ........ 32-38

*Asadova Ra’no Baymanovna*
O‘ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO‘TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI ........ 39-42

*Saidova Raxima*
O‘ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI .... 43-48

*Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi*
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI ........ 49-55

*Iriskulov Bekzod Jaxongirovich*
TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYuDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ........ 56-60

*Mirsoatova Sayyora Turg‘unovna*
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI ........ 61-66

*Луҳмонов Шаҳзод Сайфиддин ўғли*
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР ........ 67-71

*Axmedov Bekzod*
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O‘ZBEKISTONDA QORAKO‘LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI ........ 72-75

*Mamatov Jasurbek Qodirqul o‘g‘li*
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O‘RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) ........ 76-80

*Saidaxmatov Sharifbek Toshpo‘latovich*
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI ........ 81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*
ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ........ 94-99

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tursunov Bektmuxammad Omonovich*
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY OʻZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ........ 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QOʻLLANISHI ........ 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH YOʻLLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA........ 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*
КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*
KAMBAGʻALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI........ 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*
MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING OF GOODS AND SERVICES ........ 143-152

*Ilhamova Zarnigor Poʻlatjon qizi*
MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI TASNIFI ........ 153-160

*Sharipov Komil*
MINTAQAVIY KAMBAG’ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ........ 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*
MAISHIY XIZMAT KOʻRSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAGʻALLIKNI QISQARTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI........ 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*
SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN........ 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*
TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING TAHLILI ........ 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir oʻgʻli*
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI ........ 197-202

*Рахимов Бахромжон Ибрахимович*
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ........ 203-209

*Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon oʻgʻli*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA)........ 210-216

*Hasanov Ilkhom Isakovich*
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN........ 217-221

*Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KOʻRSATISHNING XUSUSIYATLARI ........ 222-227

*Maxmudov Jasurbek Ergashevich*
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QOʻLLAB-QUVVATLASH TAHLILI ........ 228-233

*Ravshanov Nodirjon Begalievich*
TAʼLIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TAʼLIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI ........ 234-243

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TAʼSIRI ........ 244-248

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*
XORAZM JADIDLARI MAʼNAVIY MEROSINING YANGI OʻZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAGʻRIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI...... 249-254

*Saburov Jaloliddin*
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI ........ 255-260

*Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich*
NAJMIDDIN KUBRO TAʼLIMOTIDA “KOMIL INSON ” TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MAʼNAVIY YUKSALISHGA OID GʻOYALARNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 261-265

*Saidkulov Nuriddin Akramkulovich*
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY ........ 266-271

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI ........ 272-277

*Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich*
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION ........ 278-282

*Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich*
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 283-287

## 11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Baxronova Dilrabo*
PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KOʻCHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ........ 288-295

*Daliyeva Madina*
DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 296-300

*Paluanova Khalifa*
STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ........ 301-306

*Равшанов Махмуд*
СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ........ 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*
SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ........ 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon oʻgʻli*
MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ........ 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*
ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QOʻLLANILISHI VA TAHLILI ........ 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*
TERS LUGʻATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ........ 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*
KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA OʻZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*
XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ........ 340-345

*Расулова Камола*
ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ........ 346-353

*Омонов Турғунбой*
"СУҒУРТА" ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ........ 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........ 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*
IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*
CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ........ 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*
EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI ........ 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIYALARINI O‘RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ........ 386-390

*Quljanova To‘lg‘anoy Shodiyor qizi*
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE’RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ........ 391-396

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Рузметов Хайрулла*
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ........ 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ........ 403-410

*Abdubannayev Umidjon*
AXBOROTGA BO‘LGAN INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ........ 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ........ 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон Ўғли*
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ........ 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA ........ 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ........ 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ........ 452-462

*Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич*
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ........ 463-469

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Xusanova Mohira*
OLIY O’QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 470-479

*Берикбаев Алишер Аликулович*
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ........ 480-483

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TALABALARNING TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 484-489

*Yakubova Nafisa Odilyanovna*
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH ........ 490-494

*Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li*
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG‘UNLIGI ........ 495-500

*Suvankulov Umid Ilxom o‘g‘li*
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 501-505

*Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich*
O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV ........ 506-518

*Jo‘rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o‘g‘li*
TA’LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI ........ 519-524

*Siddiqova Shahnoza Ahmedovna*
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI ........ 525-529

*Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich*
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA’LIM, FAN VA BIZNESNING O‘ZARO ALOQALARI MAZMUNI ........ 530-534

*Javliyeva Shahnoza Bahodirovna*
TA’LIM SIFATIGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ..... 535-539

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*
TA’LIM SIFATIGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ..... 540-545

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY ........ 546-550

*Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli*
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS ........ 551-555

*Latipova Gavhar Shavkat kizi*
TARIX YO’NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........ 556-564

*Ernazarov G‘olibjon Ne’matovich*
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI ........ 565-568

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issue 11 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 31 October 2024
**Accepted:** 5 November 2024
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

# TECHNOLOGY OF FORMATION OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN THE LESSONS OF FINE ARTS

**Yusupova Shakhista Alimzhanovna,**
GulGPi, Senior lecturer of the department of "History and Art history"

**Abstract.** This article examines the role of fine art in human life. The great reforms being carried out in the field of education today and their results. Visual arts the importance of students' creative abilities in the learning process and issues requiring a creative process. During the training, information is provided about the goals and objectives set by the teacher during the lesson. With the active creativity of students, the pedagogical technologies of the teacher are shown in detail as the most effective ways to overcome negative situations, such as the application of experience in practice, the development of creative abilities.

**Key words:** fine arts, composition, teacher, creativity, work, work, memory, abilities, measure, charm, society, effect, painting, thinking, imagination, activity, postnovka, geometric, pedagogical, global informatization.

# TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHGʻULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Yusupova Shoxista Alimjanovna,**
GulDPU "Tarix va san'atshunoslik" kafedrasi katta oʻqituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasviriy san'atning inson hayotidagi oʻrni. Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan katta islohatlar va uning natijalari. Tasviriy san'at mashgʻulotlar jarayonida talabalarda ijodiy qobiliyatning muhum ahamiyati va ijodiy jarayon talab qilinadigan masalalar. Ta'lim berishda oʻqituvchining dars mashgʻulotlarida qoʻyilgan maqsadi va vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan. Talabalarning faol ijod qilishda oʻqituvchining pedagogik texnologiyalari tajribalarni amaliyotga tatbigʻi, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish kabi salbiy xolatlarni bartaraf etishning eng samarali yoʻllari haqida batafsil koʻrsatilgan.

**Kalit soʻzlar:** tasviriy san'at, kompozitsiya, oʻqituvchi, ijod, mehnat, asar, xotira, qobiliyat, oʻlchov, joziba, jamiyat, samara, rasm, tafakkur, tasavvur, faoliyat, postonovka, geometrik, pedagogik, global axborotlashuv.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N72

**Kirish.** Ta'limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, oʻqitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini xarakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari toʻgʻrisidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holda muvafaqqiyat qozonib kelmoqda. Inson hayoti davomida sharoitini oʻzgartiruvchi va oʻzini ham oʻzgartiruvchi faoliyat xozirgi zamonda ta'limning umumiy asosi boʻlib hisoblanadi. Faoliyat jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil koʻrinishlari va uning turli shakllaridan farqlanadi. Biroq ichki munosabatlar, ular oʻrtasidagi aloqalar doimiy va umumiy boʻlib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, inson oʻz gʻoyaga, fikri va qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda

qoʻllaydi va qayta yaratadi.

Taʼlim sohasida katta islohatlar olib borilishi natijasida Oliy oʻquv yurtlarida oʻqitish tizimi tubdan oʻzgardi, bularning natijasida moddiy texnik bazalari mustahkamlanib borilmoqda. Demak, raqobotbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunda ustozlar oldida turgan muhum vazifalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Jamiyatning yuksalib rivojlanib borishi, bilimli insonlarning ilmiy salohiyatiga bogʻliqligi hech birimizga sir emas. Davlatimizning ertangi kuni mana shu yetishib chiqayotgan yosh avlodga, yosh pedagog kadrlarga bogʻliq desak mubolagʻa boʻlmaydi. Bugungi berayotgan taʼlim –tarbiyamiz ertaga oʻz natijasini koʻrsatadi. Shuning uchun ham oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri bu sifatli taʼlim tashkil etish hamda taʼlim tizimini tubdan isloh qilishdan iboratdir. Shu sababli, eng avvalo ijodkor qobiliyatli talabalarni aniqlay olishimiz va bor qobiliyatini yanada rivojlantirib borish zarur boʻladi. Buning uchun har bir ilmiy xodim, iqtidorli talaba uchun, qobiliyatini va mahoratini yuqori darajada namoyon etuvchi sharoit yaratish lozim boʻladi. Ushbu yaratilgan imkoniyat va sharoitdan kelib chiqgan holda, talaba oʻz ustida ishlay boshlaydi. Buning natijasida takrorlanmas ijodiy ishlar dunyoga keladi. Xoʻsh, ijod nima? Ijod insonning mehnatida paydo boʻlgan qobiliyati tufayli voqealik materialidan yangi reallik yaratadi. Ijodda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etib, butun bilimi, tajribasi, isteʼdodini namoyon etadi. Ijod dastlab inson tasavvurida tugʻiladi, soʻng sanʼatga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali integratsion taʼlim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik taʼminotini yaratish va bunday jarayonda talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yoʻnaltirilgan qobiliyatlarni rivojlantirish boʻyicha tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Global axborotlashuv ijobiy xususiyatlarga ega boʻlish bilan birga, shaxsni ijtimoiylashuvi yoʻlida muayyan toʻsiqlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shaxsda ijodkorlik sifatlari, xususan, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda bu kabi salbiy xolatlarni bartaraf etishda eng samarali yoʻllari bilan echimi topilmoqda.

Darhaqiqat, har bir taʼlim olayotgan talabalarning ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil boʻlib, uni estetik mahoratini toʻlaqonliksiz tasavvur etib boʻlmaydi. Har bir inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang- barang buyum va jismlar borliqqa goʻzallik va nafosat baxsh etib, insonga shu qonuniyatlar orqali goʻzal, chiroyli qarashga davat etadi.

Oʻqituvchining maqsadi, har qanday taʼlim berishda talabalarning aqliy rivojiga, faollikka, mustaqillikka, ijodkorlikga va albatta tashabbuskorlikga erishish hisoblanadi. Bu jarayonida esa talabalarning aqliy rivojini, ularning faol va mustaqilligi, ijodiy yondashuvi koʻp jihatdan talabalarning oʻquv ishlari va aqliy faoliyat usullarini egallaganligiga bogʻlidir. Ana shu nuqtai-nazardan ilgʻor xorijiy tajribalar asosida tasviriy sanʼat darslarida talabalarning ijodiy qobiliyatini milliy va jahon taʼlim tajribasiga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim oʻrin tutadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlanishi shaxsning oʻrganilayotgan narsa va hodisalar chuqur kirib borishga intilish va bilish faoliyatiga yangilik va ijodiylik unsurlarini olib kira olish qobiliyati bilan xarakterlanadi. [1; 36-b] Shuning uchun, tasviriy sanʼat mashgʻulotlari jarayoniga yangilik kiritishda pedagogik texnologiyalari tajribalarni amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya

texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali oʻquv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yoʻnalishlardan biri sanaladi. Tasviriy san'at mashgʻulotida rasm chiziladigan natura, obe'kt, mavzuni talabaning oʻzi idrok etishi, tasavvuri bilan tahlil qilishi, olingan taassurotlar asosida rasm chizishi lozim boʻladi. Shuning uchun rasm chiziladigan narsa va voqea haqida talabaga batafsil, tushunarli tarzda ma'lumot berilishi va rasm chizish bosqichlarini ilmiy asosda tushuntirib berishi kerak boʻladi. Albatta, bunday jarayonda oʻqituvchi noan'anaviy oʻyinlardan foydalansa mashgʻulot yanada qiziqarli va jadalroq koʻrinishida oʻtkaziladi. Ijodkor rasm chizish ya'ni kompozitsiyani yaratish jarayonida uni xis qilgan holda, mayda elementlarga e'tibordan foydalanib ijod qiladilar. Talabalarning faol ijod qilishda oʻqituvchining mavzuga tayyorlagan koʻrgazmalar juda yaxshi samarasini koʻrsatadi. Har bir mashgʻulot oʻqituvchi tomonidan oʻtiladigan yangi mavzuga oid material, tarqatma varoqlar va koʻrgazmalar tayyorlanadi. Darsga oʻqituvchi puxta tayyorgarlik koʻrishi, kerakli koʻrgazmalar, didaktik materiallar, tarqatma materiallar tarqatishi va ulardan oʻz oʻrnida foydalanishlari juda ham muhum hisoblanadi. Oʻqituvchi faoliyati jarayonida ijodkorlik bilan ish olib borilsa, talabalarning darsga boʻlgan qiziqishlarini yanada oshashiradi va bu sohaning yanada rivojlanishiga hissa qoʻshadi. Bunda albatta oʻqituvchining pedagogik mahorati juda muhumdir.

**Muhokama.** Talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlanishida oliy oʻquv yurtlarida barcha oʻtilayotgan mutaxassislik fanlarida muhum hisoblanadi. Ayniqsa, asosiy fanlardan biri rangtasvir, qalamtasvir, chizmachilik, kompozitsiya, haykaltoroshlik va boshqalar. Chunki ijodkorlik yoʻq joyda, yaratilish boʻlmaydi. Agar yaratilish boʻlmasa unda natija nolga teng boʻladi. Shu sababli ijodiy qobiliyatini rivojlanishi bu yaratilishning poydevori hisoblanadi.

Narsaga qarab rasm chizishda talabalarning koʻproq ularga kundalik xayotida tanish boʻlgan va koʻproq duch kelgan buyum-narsalar tanlab olinishi lozim. Talabalar predmetni uning sifatlarini jamlagan holda idrok etish qobiliyatiga ega. Lekin predmetni naturaga qarab ifodalash uning makondagi joylashuvi hamda tarkibiy qismlari nisbatini tahlil qila olishni taqoza etadi. Tasviriy san'at darslarida naturadan foydalanishning ayrim xususiyatlariga izoh beraylik. Natura, birinchi navbatda, xotira ishni yengillashtiradi, chunki tasvirlash jarayoni idrok qilish bilan uygʻunlashib ketadi, talabalarga predmet shakli va qurilmasi, rangni toʻgʻri anglash va yetkazib berishda yordam koʻrsatadi. Umuman olganda, amaliy mashgʻulotlarda talabalarning faolligini oshirishning koʻplab usul va vositalari mavjud boʻlib, bunday jarayonda har bir oʻqituvchining izlanuvchanligi va ijodkorligiga bogʻliq boʻladi. Mashgʻulot davomida yangi metodlardan foydalanishi va dars jarayoni puxta tayyorlanishida bilim samarasi yuzaga kelib natijani koʻrsatadi. Yana shuni ta'kidlash joizkim, mashgʻulotlar jarayonida oʻqituvchi talabalarning har bir yutugʻi uchun ragʻbatlantirishi, ularning ruhiyatini koʻtarilishi, yanada kuchliroq ishtiyoqi oshishiga va yana yangi ijod mahsulini yaratishga istak paydo boʻlishiga zamin yaratiladi. Demak, oʻqituvchi faoliyati jarayonida barcha samarali usullardan foydalanishi lozim boʻladi.

Talabalarning faol ijod qilishda oʻqituvchining mavzuga tayyorlagan oʻyin va koʻrgazmalar juda yaxshi samarasini koʻrsatadi. Oʻquvchilarning narsaga qarab rasm chizishda koʻproq ularga xayotida tanish boʻlgan buyum-narsalar postonovkaga qoʻyiladi. Ijodiy faoliyatda oʻquvchilarning qobiliyatini oshirishda juda koʻplab usul va vositalari ishlab chiqilgan va amaliyotda qoʻllanilib kelmoqda. Mashgʻulot jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishi va dars jarayoni puxta ijodiy ishning yuzaga kelishiga zamin

yaratiladi. Mashgʻulotlar jarayonida oʻqituvchi talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda bir necha xil yoʻllarini koʻrib chiqamiz.

1) Tasviriy san’at mashgʻulotlarida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish hamda takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish;

2) Tasviriy san’at mashgʻulotlarida texnologiya asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish;

3) Tasviriy san’at mashgʻulotlarida vitagen texnologiyalar vositasida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta’minotini takomillashtirish;

4) Tasviriy san’at mashgʻulotlarida kompetentsiyaviy va refleksiv yondashuv asosida darslarda talabalarning ijodiy qobiliyati rivojlanganlik darajasini tashxislovchi mezonlarni takomillashtirish.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida oʻqitish usullarining boy xazinasi toʻplangan. Biz ta’limning rivojlanishida pedagogik texnologiyalardan toʻgʻri foydalana olsak, koʻzlagan natijaga ishonch va qisqa yoʻl bilan erisha olamiz. Ta’lim texnologiyalari sohasidagi izlanishlarning toʻxtovsiz rivolanib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, ta’lim vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirish oʻqitish usullarini mutassil yangilab turishi, xalq pedagogikasi, ayniqsa milliy sharq xalqlari pedagogikasidan ijodiy foydalanishni talab qilmoqda. Lekin shuni ham aytib oʻtish kerakki oldinroq aytib oʻtganimizdek, zamon oʻzgarishi, ta’limning rivojlanishiga qarab yangidan yangi texnologiyalar yaratilib kelinmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan koʻproq foydalanish yaxshi, lekin eski texnologiyalarni ham yoddan chiqarmasligimiz lozim, ya’ni ular (eski texnologiyalar)ni yaxshi, sifatli, oʻtkir metodlarini dars jarayonida qoʻllab turishimiz kerak boʻladi.

**Natijalar.** Ijod jarayonida barcha talabalarning tasviriy san’at nazariy ma’lumotlariga yaxshi ega boʻlishi, ijodiy ishlarni sifatini va samaradorligini oshirishida oʻta muhum hisoblanadi. Ijodiy izlanish talab qilinadigan masalalarning yechimi bitta yoki bir nechta boʻlishi mumkin va talaba uni bajara olishi uchun maʻlum tayyorgarlikka ega boʻlishi lozim. Ijodiy jarayon talab qilinadigan masalalar talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishga katta xizmat qiladi. Har qanday tasviriy san’at asarni yaratishda kuzatilayotgan tasvirni tuzilishini xisobga olish muhimdir, chunki narsalarning tuzilishiga ahamiyat berilmasa ijodiy ish sifatli chiqishi aslo mumkin emas. Shuning uchun ham talabalarning rasm chizishni oʻrganishida boshlangʻich tasvirlari geometrik shakllarni chizishda alohida e’tibor qaratiladi. Buning natijada oddiy tasvirlarni sifatli qilib tasvirlashda ancha engilliklarni keltirib chiqaradi. Soʻng keyingi murakkab tuzilishdagi tasvirlarni rasmini chizishga bosqichma-bosqich oʻtiladi. Xoxlagan tasvirni chizishda geometrik shakllardan foydalansa, prespektiva xodisalarini toʻgʻri tasvirlashga koʻmak beradi. Tasvirlanayotgan har bir buyumlarning oʻz oʻlchovi, xajmi va koʻrinishiga egadir. Shu narsani inobatga olishimiz kerakki, tasvirni eni, boʻyi, qalinligi, balandligi, bir-biriga nisbatlari, uning katta kichikligini inobatga olib uni nafaqat koʻrib balkim xis qilmoq kerak boʻladi.

Oliy oʻquv yurtlarida oʻtiladigan barcha tasviriy san’atga oid mutaxassislik fanlaridan talabalarning ijodkorlikni faollashtirish uchun dastlab, ularni tasviriy san’at qonun-qoidalarni bilishga jalb qilish va ularni oʻz oʻrnida qoʻllay olishlik faoliyatini rivojlantirish kerak boʻladi. Keyin esa ularda mustaqil fikrlashni, faollikni, tashabbuskorlikni, mustaqil bilim olish koʻnikmasiga ega boʻlishni va yaratuvchanlikni kuchaytiriladi. Soʻngra talabalar bu uchun bilish faoliyatining rivojlanishida shar-sharoitlar yaratish zarur boʻladi. Bundan koʻrinib turibdiki,

oʻqish-oʻrganishda talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda izlanish talab qiladigan masalalarda, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda oʻz aksini tezroq topadi.

**Xulosa.** Xulosa qildigan boʻlsak, bundan koʻrinib turibdiki, tasviriy san’at insondagi ajoyib fazilat – dunyoni oʻrganish, borliqni bilish, uni oʻrganish va sirlarini ochishga boʻlgan extiyoj olamini koʻrsatadi. Tasviriy san’at inson ruhiyati va ongiga ta’sir etadigan, undagi ezgu xislarni uygʻotadigan, madaniy va ma’naviy olamini boyitadigan, insonni ruhlantiradigan san’at turlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Bu yuqoridagi fikrlarni talabalarda aks ettirishda esa albatta, oʻqituvchining mehnati va mahoratiga bogʻliq boʻladi. Agar astoydil istasa, xar kim, qobiliyatidan qat’i nazar savodli chizishga oʻrgana oladi. Chizishni oʻrganish, savodli yozish yoki maktab matematika kursini oʻzlashtirishga qaraganda murakkab emas. Faqat intilish va asosiysi - yaxshi iroda, rasm istalgan kasb, istalgan mashgʻulot egasiga zarurligini tushunish kerak. Chizishni bilgan san’atning barcha turlarini tushunadi, unga avval odatiy koʻringanlarning barchasida goʻzallikni koʻra biladi: uning fikrlash doirasi keng, ma’naviy dunyosi boy, u qiziqarli va shodon xayot kechiradi. [3;12-b]

Talabalarning uzluksiz mashqlari natijasida ranglardagi nozik oʻzgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikni rivojlanishiga rang-baranglikni sezishga, hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashlariga zamin yaratiladi. Tajribali rassomlarning ranglavhalarini kuzatganlarida ularning nihoyatda nafis va jozibali tasvirlanganiga havas bilan qaraydilar. Shuning uchun talabalar mohirona tasvirlash malakasiga ega boʻlishlari uchun doimo tinmay mashq qilishlari natijasida koʻzlangan maqsadga erishadilar. Albatta mashqlar jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyati rivojlanishiga zamin yaratiladi. Bu topshiriqlar oʻqituvchi nazorati ostida turli xil usullardan foydalanilgan holda jarayon olib borilishi lozim. Tinmay oʻqish, oʻrganish va izlanish hamda astoydil amaliy mashgʻulotlarni bajarish jarayonida talabalarning xaqiqiy mahoratlari yuzaga chiqaradi.

Qisqacha qilib aytganda, nazariy yondashuvlar va amaliyotdagi holatga tayangan holda, tasviriy san’atning barcha mashgʻulotlarida talabalar bilan ishlashni takomillashtirish, prinsiplarini oʻzlashtirish, pedagogik-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va bu borada rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta’lim muassasalarida qoʻllanilayotgan ilgʻor pedagogik nazariyalarni oʻrganish hamda bulardan dars jarayonlarida keng foydalanish bugungi kun tasviriy san’at oʻqituvchisining oldida turga muhim masalalardan biri boʻlib xisoblanmoqda.

Talabalarda mehnatsevarlikni, ijodkorlikni shakllantirishda tasviriy san’at dars mashgʻulotlari ta’limining mazmun-mohiyati bilan katta imkoniyatlarga egadir. Har bir oʻqituvchi vijdonan oʻz ustida ishlagan holda bugungi kun talabi asosida dars mashgʻulotlari olib borilsa, yuqori natijalarga erishadi. Zero, har bir oʻqituvchining oliy maqsadi oʻquvchilarni ijodkorlik ruhida tarbiyalash, Vatanga muhabbat, milliy gʻurur, yurt tinchligi, yuksak axloqiy fazilatlar, mehnatsevarlik tuygʻulari muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. N.N.Azizxoʻjaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.:-2006y.
2. B.N.Oripov Tasviriy san’at va uni oʻqitish metodikasi. “ILM-ZIYo” Toshkent-2016y.
3. R. Xasanov. Tasviriy san’at asoslari. Toshkent-2008y.
4. S.F.Abdurasulov Tasviriy san’at oʻqitish metodikasi. Toshkent-2002y.
5. Oʻ.J.Yoʻldoshev taxriri ostida Umumiy pedagogika. (Oʻquv qoʻllanma) Toshkent-2017.

6. Sh. A. Yusupova PHILOSOPHICAL READINGS E-ISSN:2036-4989 Издатель:Ca Foscari University Department of Philosophy and Cultural Heritage 10.5281/zenodo.5750235
7. R. Xasanov Maktabda rasviriy san'at oʻqitish metodikasi. T:, Fan: 2004.
8. Yakubova, Nafisa Odiljanovna. "THE ROLE AND IMPORTANCE OF GRAPHIC MODES IN STUDENTS-INCREASING THE IMAGINATION OF CUTTING." Актуальные научные исследования в современном мире 4-2 (2021): 268-272.B.N.Oripov Tasviriy san'at va uni oʻqitish metodikasi. *Kasb-hunar kollejlari uchun oʻquv qoʻllanma.* 5-nashri "ILM ZIYO" T:2016.
9. Berikbaev TEACHING PROFESSION AND SKILLS WAYS TO BE A TEACHER //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 23. – №. 1. – С. 142-144.
10. Sh.Yusupova. "Tasviriy san'at toʻgaraklarining uslubiy asoslari". Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2023.
11. N.Jumaboyev. "Rangtasvir". Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2023.
12. B.Nusharov, B.Usmanov. "Chizmatasvir". Oʻquv qoʻllanma. Guliston, 2023.
13. Юсупова, Ш. А., & Жумабоев, Н. П. (2021). ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ. *Science and Education*, *2*(2), 460-464.
14. Жумабоев, Наби. "THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.2 (2024).
15. Юсупова Ш. TASVIRIY SAN'AT TOʻGARAK MASHGʻULOTLARIDA QOʻYILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.
16. Юсупова Ш. TOʻGARAK MASHGʻULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA OʻQUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 12/2.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).